XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-noyabr VII-14-100-2-36-K/25 Kogon tumani

Kogon tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil 9 oylik yakunlari bo‘yicha ijrosi hamda 2025 yil 3-chorak yakunlari bo‘yicha shakllangan qo‘shimcha manba mablag‘larini yo’naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 143 va 148-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qaroriga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq tuman hokimligining Kogon tuman mahalliy budjeti ***daromadlarining 2025 yil 9 oylik yakunlari bo‘yicha ijrosi hamda 2025 yil 3-chorak yakunlari bo’yicha shakllangan qo‘shimcha manba mablag‘larini yo’naltirish to‘g‘risida*** hisobotni (maxsus komissiya xulosasi asosida) ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 143 va 148-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qaroriga asosan ***Kogon tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil 9 oylik yakunlari bo‘yicha ijrosi hamda 2025 yil 3-chorak yakunlari bo’yicha shakllangan qo‘shimcha manba mablag‘larini yo’naltirish to‘g‘risidagi*** Kogon tuman Iqtisodioyt va moliya bo‘limi va umumlashtiruvchi komissiyaning (taklifi) hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kogon tumani mahalliy byudjetining ***2025 yil daromadlari rejasining 9 oylik ijrosi-bajarilishi soliq turlari bo‘yicha 1-ilovaga, 2025 yil 3-chorak***

yakunlari bo’yicha shakllangan qo‘shimcha manba mablag‘larini yo’naltirish 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 01 yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorlini yanada oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli Qarorining ijrosini ta’minlashda samaradorlikka erishgan, tumanda tashkil etilgan shtabda yuqori ko’rsatkichlarga erishgan soha vakillaridan iborat bir qator faol a’zolarni moddiy rag’batlantirish maqsadida, shularni inobatga olgan holda, Qaror talablaridan kelib chiqib, 2025 yil 19 fevraldagi VII-05-12-2-36-K/25-sonli xalq deputatlari tuman kengashi Qarori 3-ilovasi 4-bandiga muvofiq tumanda 2025 yil boshidagi shakllangan qo’shimcha manba mablag‘lari hisobidan tumandagi barcha turdagi bayram tadbirlariga taqdirlash maqsadida sovg‘alar olish bilan bog‘liq qarzdorlik xarajatlari to‘lovi uchun ajratilgan 100,0 mln so‘m mablag‘ning iqtisod qilingan qismi (iqtisod qilingan mablag‘i – 8,897 mln so‘m)dan jami 8,897 mln so‘mlik mablag‘larni yuqorida ta’kidlangan moddiy rag’batlantirish to‘lovlari uchun qayta tqsimlangan holda tuman hokimligiga ajratilsin, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 13 maydagi “Hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi farovonligini ta’minlash uchun kadrlarning o‘zaro tajriba almashishi va zamonaviy ish uslublarini o‘rgatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VMQ-316-sonli Qarorida mahalliy byudjet qo‘shimcha manbalari hisobidan, xizmat uylari bilan ta’minlanmaganda turar joy ijarasi kompensatsiyasi uchun har oyda Toshkent shahrida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining olti baravarigacha tegishli mablag‘larni ajratilishi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Shularni inobatga olgan holda, Qaror talablaridan kelib chiqib, 2025 yil 24 iyuldagi VII-10-65-2-36-K/25-sonli xalq deputatlari tuman kengashi qarori 3-bandiga muvofiq Hokimlikning kreditor qarzdorlik to‘lovlari uchun ajratilgan 20,0 mln so‘m mablag‘ning iqtisod qilingan qismi (iqtisod qilingan mablag‘i – 3,915 mln so‘m)dan 0,914 mln so‘mlik mablag‘larni yuqorida ta’kidlangan ***turar joy ijarasi kompensatsiyasi to‘lovlari uchun*** va 3,001 mln so‘mlik mablag‘larni esa ***tumandagi bayram tadbirlarida taqdirlash uchun sovg‘alar olish xarajatlariga,*** 2025 yil 26 avgustdagi VII-11-75-2-36-K/25-sonli xalq deputatlari tuman kengashi qarori 5-bandiga muvofiq Hokimlikni qo‘riqlash xizmati qarzdorligiga ajratilgan 42,0 mln so‘m mablag‘ning iqtisod qilingan qismi (iqtisod qilingan mablag‘i – 21,0 mln so‘m), 6-bandiga muvofiq Hokimlikka qo‘shimcha ko‘rsatilgan yuridik xizmat to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik xarajatlariga ajratilgan 10,0 mln so‘mlik iqtisod qilingan jami 31,0 mln so‘mlik mablag‘lar ***tumandagi bayram tadbirlarida taqdirlash uchun sovg‘alar olish xarajatlariga*** qayta taqsimlangan holda tuman hokimligiga ajratilsin hamda hokimlik bosh hisobchisi D.Homidovga ajratilgan mablag‘larni qonunchilikda belgilangan tartibda hisob-kitob qilish-to‘lovlarini amalga oshirish topshirilsin.

4. Xalq deputatlari kengashi deputatlari mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda qo‘shimcha manbalar asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo‘naltirish uchun “Ochiq byudjet” tizimi to‘g‘risida aholini xabardor qilish va

ularning ushbu tadbirlarga faol ishtirokini ta’minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

5. Kogon tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va G‘aznachilik xizmatiga:

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida mahalliy budjetning parametrlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish hamda parametrlarda ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

budjet xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda hisobga olish, tegishli hududiy budjet mablag‘i oluvchilarning xarajatlar miqdoriga aniqlik kiritish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni o‘rnatish topshirilsin.

6. Tuman soliq inspesiyasi boshlig‘i (S.Axmedov)ga:

2025 yil uchun belgilangan daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini barcha soliq turlari kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushumlarini tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan to‘liq, samarali foydalanish topshirilsin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Kengash raisi **QAZOQOV OTABEK NODIROVICH**

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2025-yil 26-noyabrdagi
VII-14-100-2-36-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kogon tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil to‘qqiz oylik ijrosidan kelib chiqib, soliq turlari kesimida prognoz reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi to‘g‘risida

MA’LUMOT

mln.so‘mda

t/r	MANBALAR NOMI	To‘qqiz oylik ijro			
		Jami reja	**Jami ijro**	**Jami farqi**	**%**
I.	**Kogon tumani jami**	**62,732.5**	**64,232.9**	**1,500.4**	**102.4%**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0.0	0.0	0.0	0.0%
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	6,361.8	6,383.2	21.4	100.3%
2.2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	6,361.8	6,383.2	21.4	100.3%
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	11,867.2	9,493.5	-2,373.8	80.0%
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	573.1	544.5	-28.6	95.0%
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6,569.8	8,454.7	1,884.9	128.7%
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,575.7	5,452.6	876.9	119.2%
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	18,719.5	17,532.4	-1,187.1	93.7%
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11,426.3	11,927.8	501.5	104.4%
9	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	1,437.7	787.1	-650.6	54.7%

10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1,154.4	1,536.0	381.7	133.1%
11	Jarimalar	0.0	50.1	50.1	0.0%
12	Yigimlar	0.0	13.1	13.1	0.0%
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	47.0	117.6	70.6	250.1%
14	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0.0	-0.2	-0.2	0.0%
15	Boshqa tushumlar	0.0	1,940.7	1,940.7	0.0%

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2025-yil 26-noyabrdagi
VII-14-100-2-36-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Kogon tumani mahalliy byudjetining 2025 yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo'shimcha manbalari hisobidan yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorlari.

2-ilova

№	Tadbirlar nomi.	Ajratiladigan mablag'lar miqdori. (mln.so'mda)
1.	Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga (14.02.2022 yildagi PQ-128 ning tegishli bandiga asosan 10 kunlik "e-qaror" electron tizimiga jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilmaslik sharti bilan) yo'naltirish uchun-30% (O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli yangi tahrirdagi qaroriga asosan.	8,000
2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli qarorining 14-bandiga asosan tegishli tartibda belgilab berilgan maqsadlarga yo'naltirish orqali tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun *	17,414
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 12 sentabrdagi PF-172-sonli Farmonining 4-bandi talabi ijrosiga asosan mablag'larni yo'naltirgan holda tadbirlarni moliyalashtirish uchun **	1 141,494
JAMI:		**1 166,908**

Ajratiladigan mablag'lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar va loyiha-smeta hujjatlariga asosan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

**** Ushbu maqsadlarga mablag'larni yo'naltirish orqali tadbirlarni moliyalashtirish haqiqiy xarajatlar va budjet tashkilotlarining talabnomalari hamda so'rovlariga asosan qonunchilikda belgilangan tartibda tuman hokimining farmoyishlariga muvofiq ravishda tegishli mablag' oluvchilar orqali moliyalashtiriladi .***

***** Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqini elektron onlayn auksion savdolari orqali sotishdan tuman budjetiga tushgan mablag'lar tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisoblanishi belgilab qo'yilsin. Bunda ushbu mablag'lar qat'iy ravishda hududiy investitsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturlariga muvofiq tegishli tumanda qishloq va suv xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, sug'orish tizimlarini yaxshilash, zamonaviy suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish, yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish, qishloq xo'jaligi sohasidagi eng so'nggi ilmiy yangilik va innovatsion***

yondashuvlarni joriy etish tadbirlarini moliyalashtirish uchun xalq deputatlari tuman Kengashlari qarorlariga muvofiq asoslantirilgan manzilli hisob-kitoblar asosida yo‘naltiriladi (Kogon tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasiga mazkur mablag‘lar ajratilish ta’minlansin).